

## SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOLALARNI AHLOQIY TARBIYALASHDAGI QARASHLARI

*Jamila Atamirodova - JDPU o'qituvchisi*  
*Qurbonova Maxliyo - 3-kurs Maktabgacha ta'lim*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida barcha manbalarni o'rganish, ulardan foydalanish va ularga amal qilish yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim o'ringa ega. Ayniqsa, allomalarimizning tarbiya haqidagi ijodlarini, mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarini o'rganishga va kishilarni sabr-qanoat, tinch-totuvlikka undaydi

**Аннотация:** В данной статье показано, что сегодня изучение, использование и применение всех ресурсов в дошкольных образовательных организациях играет важную роль в воспитании подрастающего поколения в духовно-гармоничном состоянии. В частности, он призывает к изучению творческих способностей наших ученых о воспитании, идей наших мыслителей об образовании и поощряет людей к терпению и миру

**Annotation:** This article shows that today's study, use and application of all resources in preschool educational organizations plays an important role in educating the younger generation in a spiritually harmonious state. In particular, he calls for the study of the creative abilities of our scientists about education, the ideas of our thinkers about education and encourages people to patience and peace.

**Kalit so'zlari:** Axloq, xulq-atvor, urf-odat, ta'lim-tarbiya, mutafakkir, donishmand, milliy qadriyatlar .

Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o'z –o'ziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi ahloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning alohida bir shaklidir. Axloq tarixiy xususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatida avlodlar tomonidan to'plangan ahloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi.

Axloq sinfiy xususiyatga ega, chunki ahloq, his –tuyg'u, tushuncha va prinsiplar ma'lum ijtimoiy formasiyaga xos bo'lib ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan u ham o'zgaradi. Bizning jamiyatimizdagi ahloq eng yaxshi umuminsoniy xulq normalarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Insonning barkamolligiga uning ma'naviy dunyosi qandayligi bilan belgilanadi. Yaxshi tarbiya kishining qimmatbaho boyligidir.

O'zbek xalqining ma'naviyati haqiqatgo'y va adolatli bo'lish, jaholat va qabihlik yo'lini to'sish, insoniylik, mehr –shafqat, ma'rifat, do'stlik, mardlik, birodarlik,

mehmondo'stlik, poklik, xushxulqlik, insof, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga chaqiradi.

O'zbek xalqining urf –odatlari, turmush tarzi, ta'lim –tarbiya, madaniyat an'analari moziyning uzoq –uzoq asrlariga borib taqaladi. Hozirgi va kelajak avlodimiz kishilari o'zbek milliy ma'naviyatini yaxshi bilishlari va unga rioya qilishlari lozim. Shundagina jamiyat to'q, farovon, kishilar osoyishta va madaniy hayot kechiradilar. Bu hamisha hamma avlod tomonidan e'tirof etilgan.

Qadim-qadimdan o'zbek, sharq klassiklari ijodida ahloq-odob masalasi markaziy o'rinni egallab kelgan. Kaykovusning “Qabusnoma”sidan tortib, Al –Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilik” (“Baxt keltiruvchi bilim”), Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” (“Haqiqat sovg'alari”), imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-Adab Al-Mufrat” (“Adab durdonalari”) kabi jahonga mashhur asarlarida, Alisher Navoiyning o'lmas sheriyatida, Munis Xorazmiyning “Savodi ta'lim” ila, “Kamoliddin Xusayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsimiy”, “Ravzati shaholat” (“Shaholat bog'i”) kabi asarlarida ahloq, odob masalalari yoritiladi.

Koshifiyning asarlaridagi ta'lim –tarbiya, ahloq masalari ko'pchilik uchun andoza, namuna, odob normasi sifatida qisqa, asosli, lo'nda qilib qilib yozilgan. Koshifiyning fikricha, inson fazilati uning egallagan ta'lim-tarbiyachiga bog'liq. Shundagina u odobli hisoblanishi mumkin.

“Odob –bu qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarni ham hurmat qila bilishdadir”, deydi olim. Uning fikriga yaqin fikrni A.Navoiy ijodida ham ko'ramiz. “Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog'idir” –deydi buyuk shoir. Bu bilan u kishilarning insoniylik belgisi uning odobli, ahloqli ekanligi bilan o'lchanadi, deb ta'kidlaydi va barcha insonlarni yaxshi xulqli bo'lishiga chaqiradi.

A.Navoiyning “Mahbubul qulub” asarida odob, ahloqqa oid g'oyalar ilgari surilgan. Uning birdan –bir orzu –umidi, ideali insonga bo'lgan mehr –muhabbat, samimiylik edi. Uning quyidagi misralari fikrimizning yaqqol dalilidir:

Menga na yoru na oshiq havasdir.

Garchi men odam o'lsam –ushbu dasdir.

Yoki:

Davron elining jismida ham jon bo'lg'il,

Ham jonlariga moyai darmon bo'lg'il

Yoki:

Naf'ing agar xalqqa beshak erur;

Balki bu naf o'zingga ko'proq erur.

Yuqoridagi she'riy starlardan ko'rib turibmizki, A.Navoiy insonparvarlik g'oyalarini nihoyatda ulug'langan. U odamlarni bir –birini hurmat qilishga, bir –biriga

yordam qo'lini cho'zishga, kishilar manfaatini ko'zlab ish yuritishga chaqirgan, cho'zishga, kishilar manfaatini ko'zlab ish yuritishga chaqirgan.

Mutafakkirlarimizning asarlarida xalq so'ziga, maqolga aylanib ketgan hikmatli gaplarni ko'plab keltirish mumkin

Koshifiyning

“Yolg'onchilik seni jarlikka yetaklaydi,

Rostgo'ylik esa baxtsizlikdan saqlaydi”

va “Odob –oltindan qimmat” kabi durdona fikrlari shular jumlasidandir.

Imom Ismoli Al-Buxoriyning “Al-odob Al-Mufrad” (“Adab durdonalari”) kitobi ota-onani hurmat qilish zarurligi to'g'risidagi so'zlar bilan boshlanadi. Jumladan, kitobning 13-sahifasidagi hadisda shunday deyiladi.

Alloh Taolloning rozi bo'lishi, avvalo, onaning, onaning va yana onaning, keyin esa otaning rozi bo'lishiga bog'liqdir.

Donishmandlar aytibdurlarkim, odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir.

Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l –atvori ham odobdir.

Buyuk mutafakkir, fors–tojik adabiyotining klassiklaridan Abulqosim Farruxiy odobning qimmatini shunday ta'riflaydi.

Yaxshi xulq shohlik va katta mamlakatdan yaxshiroq,

Sof tabiat tilla shahar konidan ham yaxshiroq.

Voiz Koshifiy insonlarda oq ko'ngillilik, bag'ri kenglik, mehnatsevarlik, sofdillik, rostgo'ylik, sahiylik, vijdoniylik, irodalilik, qat'iyatlilik kabi fazilatlar bo'lishi shart va bular insonning barkamolligidan dalolat beradi, deydi. Ammo xasislik, tamagirlik, ochko'zlik, dilozorlik, pastkashlik, tuhmatchilik, xoinlik, yolg'onchilik kishilarni beburd, ahloqsiz qilib qo'yadi. Bunday salbiy xislatlar ularni obro'sizlantiradi, hayotini izdan chiqaradi, noto'g'ri yo'lga boshlaydi. “pastkash, baxil odamdan yaxshilik kutish mevasiz daraxtdan meva kutishga o'xshaydi”, deb ta'kidlaydi Koshifiy.

Ulug' alloma Ibn Sino inson hayosi to'g'risida shunday degan: “Insonda doim turadurg'on husi ila latofat hayo ila ibodur. Hayosiz yuz joisiz jasad kapidur”.

Suqrot: “Xotinlarning eng go'zali hayo va iffat pardasiga o'ralganidir”, deydi.

Abu Nasr Farobiy inson o'zining yaxshi xulqi bilan baxt –saodatga erishishi mumkin, deydi.

Zamonimizning yirik ma'rifatparvarlaridan bo'lmish Abdulla Avloniy inson barkamolligi uning aqlida, jismoniy sog'lomligida hamda odobli xushxulqida, deb biladi.

Abdulla Avloniy til va so'z odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni shunday ta'riflaydi: “...so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadigan

tarozidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvati, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar”.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud Axloq” kitobining “Xaqqoniyat” deb atalgan bobida rostlik va to'g'ri so'zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri deb hisoblaydi va u to'g'rida shunday yozadi:

“Haqqoniyat deb ishda to'g'rilik, so'zda rostlikka aytilur. Inson bo'stoni salomatga, gulzori soadatga haqqoniyat yo'li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o'lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdir...” (Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud Axloq”. 15-16 bet)

U inson odobidagi hayo va iffatni yuqori baholaydi. Hayo deganda ishda, so'zda odobga rioya qilmoqni tushunadi, uni insoniylikning muhim belgisi, deb biladi.

Abdulla avloniy ahloq –bu xulqlar majmuasidir, ammo yaxshi xulq o'z –o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit –tarbiya kerakligini gapiradi. U bola tarbiyasida, u o'sayotgan shart –sharoit va tarbiyaning roliga alohida e'tibor beradi va tarbiyaning bola kamolotida tutgan o'rni to'g'risida shunday deydi:

Temirchining bolasi tarbiyat topsa bo'lur olim,  
Buzilsa xulqi, luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'usi zolim!

Davrimizning taniqli allomalaridan biri, professor Shoislom Shomuhamedov odobli bo'lish fazilati to'g'risida shunday yozadi:

Odamiylik debochasi odob ekan,  
Odob kishi hayotida oftob ekan.  
Kimda odob mayub bo'lsa, dili majrux,  
Baxti kulmas saodati betob ekan.

Odobli bo'lishning fazilati to'g'risida she'r va dostonlardan, adabiy manbalardan juda ko'plab parchalar, she'riy misralar keltirish mumkin.

Odobli, yaxshi xulqli bo'lish to'g'risida dono xalqimiz to'qigan ko'plab maqol, matallar asrlar osha og'izdan –og'izga o'tib kelmoqda:

Barcha ishdan xulqi xush yaxshi erur,  
Xulqi xush odamni el izzat qilir.  
Odob aql va imonning chirog'i, obro' –e'tibor sarmoyasidir.  
Odobing –obro'ying  
Odob –kishining asbu ziynati  
Oltin olma odob ol,  
Odob oltin emasmi.  
Inson odobi bilan,  
Osmon oftobi bilan.  
Yaxshilikka yaxshilik har kishining ishidir,  
Yomonlikka yaxshilik er kishining ishidir.  
va hokazo.

Yuqoridagi aytilganlardan xulosa qilib shuni aytsa bo'ladiki, ahloq, odob o'zbek millati hayotining mag'zi hisoblanadi.

Qayerda, qaysi davrda, qaysi jamiyatda yaxshi xulq qaror topsa, o'sha jamiyatdagi kishilarning hayoti farovon, turmushi tinch, odamlari piru badavlat bo'ladi.

Bizga tiqishtirilgan sovet tuzumi davrida xalqimiz o'z ajdodlarining milliy qadriyat va madaniyatidan, urf-odatlaridan, tilidan, milliy-madani an'alaridan benasib qilib kelingan xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz orasidagi ilmsizlik, ahloqsizlik, qo'pollik, ko'rslik, ma'naviy qashshoqlik kabi illatlarning ildizi bevosita yuqoridagi holatlarga borib taqaladi.

Bas shunday ekan, hozir jumhuriyatimiz mustaqillikka erishgan va o'z istiqlolini tiklayotgan bir vaqtda, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish ko'p jihatdan biz yashab turgan jamiyatning va undagi har bir shaxsning ahloq darajasiga bog'liq.

Buning uchun dono xalqimizning, mutafakkirlarimizning durdona fikrlariga rioya qilib, yoshlarimizga bolalikdan boshlab ajdodlarimiz tomonidan qo'llab kelingan eng xalqchil odob namunalarini o'rgatib borishimiz zarur. Tarbiyani yoshlikdan boshlash zarurligini, barcha mutaffakir olimlarimiz ta'kidlab kelishgan. Jumladan, buyuk mutafakkir Abu Shukur Baxiy bola tarbiyasi yoshligidan boshlanishi kerakligini shunday ta'riflaydi.

Yoshlik chog'ida o'rganish bilan

Aql ham idrok topishning oson.

Xohlagan tomonga egib qo'yadi.

Niholligida daraxtni bog'bon

Qiyshig'ini hyech kim to'g'rilay olmas,

Nihol ulg'ayib, bo'lganda yo'g'on

Qadim-qadimdan ilmi kishilar jamiyatning eng baobro' kishilari hisoblanganlar. Shu bilan birga, ilmi bo'lish odob-ahloq qoidalarini egallash bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirib borilgan. Aksariyat, odob har qanday ilmdan yuqori qo'yilgan va bu hol bola tarbiyasida, uning kelajakda jamiyatga munosib kishi bo'lib yetishishida o'zining juda yaxshi samarasini bergan.

Pedagogika fani ham bolani har tomonlama tarbiyalashni muhim vazifalardan biri deb hisoblaydi. U bolalarga ahloqiy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning ahloqiy his –tuyg'ulari va sifatlarini, ijobiy munosabatlar va xulq madaniyatini tarbiyalash zarur, deb qaraydi.

Davrmizdan yetti asr avval yashab o'tgan Nasriddin Tusiy ham kishilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishda tarbiya asosiy o'rinni egallaydi, deydi.

Olimning o'sha davrda keng tarqalgan "Axloqi Nasriy" asarida ta'lim-tarbiya, milliy axloq-odob borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joy-joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Bolalarning ahloqiy tarbiyasiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samaraliroq bo'lishi uchun har bir yosh bosqichi ruhiyatini yaxshi bilish kerak. Psixolog va pedagog olimlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasi bolalarda ahloqiy rivojlanish juda erta boshlanishini ko'rsatdi: bola hayotining birinchi oyidayoq kattalar u bilan gaplashganidan quvonib ketadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti yoshiga kelganda kattalar bolani yaxshi parvarish qilsalar, u kattalarga mehr qo'yadi.

Tadqiqot ishlari natijasi shuni ko'rsatadiki, bola 2-3 yoshga kirganidayoq unda uyatchanlik, mustaqillik yoki o'ziga ishonchsizlik, xudbinlik yoki g'amxo'rlik, o'z tengdoshlariga e'tibor bilan munsoabatda bo'lish kabi shaxsiy xususiyatlar namoyon bo'la boshlaydi. Bular hammasi bolalarning tevarak-atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatini belgilaydi. Bir qancha olimlarning ta'kidlashicha, katta guruh bolalari hoziravoblik, xayrixohlik va haqqoniylik kabi ahloqiy hislatlarni egallab olar ekanlar. Shu bilan birga, ular boshqalarning iztirob chekayotganiga ko'pincha befarq bo'lar ekanlar, bunday hislarni ular anglab yetolmas ekanlar.

Bolalarni ijtimoiy hayot voqyea-hodisalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar to'g'risidagi eng oddiy bilimlarni egallab olishlari ularda dastlabki vatanparvarlik va baynalmilalchilik hislarini tarbiyalashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshining o'ziga xos tomoni shundaki, bu yoshda bolalar hali ahloqiy tushuncha yoki xulqni so'z bilan aniq ta'riflab berolmaydilar, uni boshqa shunga o'xshash voqyealar bilan solishtira olmaydilar. Ammo bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotisidagi to'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayon ahloqiy voqyealarning umumiy ma'nosini anglab olishga yordam beradi. Agar bolalar boshqalarda yaxshi xulq namunalarini ko'rsalar, o'zlari ham ularga o'xshashga harakat qiladilar.

Axloqiy tarbiyaning g'oyaviy asosi uning maqsadi, vazifasi va prinsipini belgilaydi, ruhiy –pedagogik asosi esa bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotisida ahloqiy tarbiya berishning aniq vazifasi va mazmuni, vositalari va metodini, shuningdek pedagogik shart –sharoitini belgilab beradi. Axloqiy tarbiya jismoniy, aqliy, mehnat, estetik tarbiya bilan va bolalarning o'z faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda axloqiy sifatlarni va madaniyatni, insoniy fazilatlarni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi bilan birga xalqimiz orasida keng tarqalgan urf-odatlar, marosimlar, an'analar, ayniqsa, muhim. Chunki mehnat an'analari zamirida shaxsning xulqiy sifatlari – mehnatsevarlik, yerga va tabiatga muhabbat, har bir narsaning qadriya yetish, mehnat baxt manbai ekanligini anglash kabilar yotadi.

Ayniqsa, axloq-odob tarbiyasiga doir fikrlar xalq og'zaki ijodida o'z ifodasini topgan. Xalq qo'shiqlari, rivoyatlari, ertaklari va boshqa namunalarida xalqimizning boy tarixiy merosini ko'ramiz.

Doimiy qadrlanib kelayotgan muhim qadriyatlarimizdan biri mehnat tarbiyasiga oid namunalardir. Mehnat an'analarining tarbiyaviy ahamiyati benihoya. Chunki

mehnatga muosabatni qaror toptirish yosh avlod tarbiyasining asosi hisoblanadi. Quyidagi rivoyatdan fikrimizni asoslashimiz mumkin:

“Kunlarning birida ota yosh o’g’li bilan daladan qaytayotganda, yo’lda yotgan taqani ko’rib qolibdi va ota o’g’liga:

- Taqani ol – deydi.

- Nimaga olaman? Bu menga kerak emas, singan taqa-ku – deb javob beradi, o’g’il.

Ota hych nima demasdan taqani olib yo’lida davom etadi. Ular shaharga kirib kelishadi. Ota taqani temirchilarga sotadi va puliga holva sotib oladi. O’g’liga e’tibor bermagan holda holvani yev, uyiga jo’naydi. O’g’il ham holvani yegisi, totib ko’rgisi keladi. Buni payqab turgan otasi qo’lidagi holvaning bir bo’lagini atay yerga tashlab yuboradi. O’g’il darrov engashib, holvani olib, og’ziga soladi. Birozdan keyin ota yana bir bshlak holvani yerga tashlaydi.

Shunday qilib, ular manzilga yetib kelguncha o’n martacha holva bo’laklari “tushib” ketadi va har safar bola uni terib, og’ziga soladi. Nihoyat, ota to’xtab, qolgan holvani o’g’liga berar ekan, deydi:

- Ko’rdingmi, bir marta yerga egilib, taqani olishga bo’yning yor bermadi, dangasalik qilding. Taqaning puliga kelgan holvani yerdan olish uchun o’n marta egilding. Endi quloq sol, agar sen onson ishni og’ir deb o’ylasang, undan ham qiyinroq ishlarga duch kelasan”.

O’zbek xalqining o’ziga xos tarbiya usuli uzoq-uzoq davrlarga borib taqaladi. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tashkilotining xodimlari o’zbek milliy qadriyatlarini, milliy an’analar va urf-odatlarini yaxshi bilishlari va unga tarbiya tizimida rioya qilishlari bola shaxsining kamoloti va kelajak avlodimizning xulq va madaniyatini tarbiyalashda asosiy o’rin egallaydi.

Milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda axloqiy sifatlarni va madaniyatni shakllantirishda tarbiyachi faoliyatini yuqori darajaga ko’tarish uchun quyidagi talablarga e’tibor qaratildi:

- milliy qadriyatlar bo’lgan ota-bobolarimiz merosini o’rganish;

- xalq og’zaki ijodi, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda axloqiy sifatlarni va madaniyatni shakllantiruvchi g’oyalari bilan tanishish;

- xulq madaniyati tushunchasi, mazmuni-mohiyatini tushuna olish;

- urf-odatlar va an’analarini, ularning tarbiyaviy ahamiyati mohiyatini anglab yetish;

- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda yaxshi xulqli, madaniyatli bo’lish haqidagi tasavvurlarni rivojlantirib borish;

Bundan ko’rnib turibdiki, o’zbek xalqi bolalarni hayotga va mehnatga tayyorlashda asrlar davomida tarbiya an’analaridan keng foydalangan.

Shunday qilib, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida barcha manbalarni o'rganish, ulardan foydalanish va ularga amal qilish yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim o'ringa ega. Bu o'rinda, ayniqsa, allomalarimizning tarbiya haqidagi ijodlarini, mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarini o'rganish maslahat beradi va kishilarni sabr-qanoat, tinch-totuvlikka undaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Oliy ta'lim tashkilotining odob–axloq qoidalari. Tosh.O'z.Rep.OO'MTV. 2011 y. – 12 b.
2. Azizxo'jayev N.N. Pedagogika tarixi va pedagogik maxorat. (o'quv qo'llanma). T.: 2013. 146 bet.
3. Irisov A Xikmatlar to'la bu dunyo.. T.: "O'qituvchi". 1997.
4. Ergashev Q Yoshlarni ma'anviy tarbiyasi. (darslik).. T.: Ma'naviyat nashriyoti. 1999.
5. Zunnunova A va boshqalar. Pedagogika tarixi. (darslik). T.Sharq. 2000.
6. Hasanboyev J., To'raqulov X., Alqarov I va boshqalar.Pedagogika. (Pedagogika nazariyasi va tarixi). (darslik). T.: Fan va texnologiya. 2010.
7. O'zbekiston pedagogikasi tarixi (o'quv qo'llanma). Respublika Fan va texnologiya davlat qo'mitasi. T.: "O'qituvchi". 1997. 272 bet.
8. Zunnunov A.. Pedagogika nazariyasi. O'quv qo'llanma. T.: Aloqachi. 2006 y. 163b.
9. X.Ibragimov va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. Darslik.T.: fan va texnologiya. 2006y.288b.
- 10.Pedagogika fanning barkamol avlodni shakllantirishdagi o'rni. (4-qism) T.: Sangzor. 2003y. 116b.
- 11.Safarov O. Oila ma'naviyati. T.: Ma'naviyat. 2009y.
- 12.S.Ochil. K.Xoshimov. O'zbek pedagogikasini antologiyasi. (2-jald). T.: O'qituvchi. 1999. 480b.